

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDA ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN
BOLALARNI KORREKSIYALASHNING INNOVATSION YO'LLARI**

*Namangan viloyati Mingbuloq tumani
13- sonli DMTT direktor o'rinbosari
Bekmurodova Nargiza Mavlonqulovna*

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi eshitishida nuqsoni bor bolalarni oilada, jamiyatda va ta'lim tashkilotlarida sog'lom bolalarga moslashtirish (korreksiya)ning ilmiy jihatlarini tahlil qilib berildi. Va bolani eshitish a'zolaridagi nuqsonlarni ham tibbiy, ham pedagogik, ham psixologik jihatdan diagnostika qilishning intensiv usullari ochib berildi.

Kalit so'zlar: korreksiya, nutqiy muloqot, maxsus mashg'ulot, akustik qiyofa, intensiv korreksiya, intensiv usul.

**INNOVATIVE WAYS OF CORRECTION OF CHILDREN WITH HEARING
DEFECTS OF PRESCHOOL AGE****Annotation**

This article analyzes the scientific aspects of adapting (correcting) children with hearing defects of preschool age to healthy children in the family, society and educational institutions. And intensive methods of diagnosing defects in the child's hearing organs from both a medical, pedagogical and psychological point of view are revealed.

Keywords: correction, speech communication, special training, acoustic image, intensive correction, intensive method.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalashning yana bir muhim jihati ularning bilim olishi va o'sishi uchun qulay va inklyuziv muhit yaratishdir. Bu tarbiyachilar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan yaqin hamkorlikni o'z ichiga olishi mumkin, bu bolaning ehtiyojlarini qondirish va ularga tegishli yordam va turar joy olishini ta'minlash uchun. Qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratib, biz bu bolalarga o'z qobiliyatlariga ishonch va kuchga ega bo'lishlariga yordam bera olamiz.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan, zaif eshituvchi bolalar bilan ota-onalar ilk yoshdayoq umumiy va nutqiy rivojlanish qonuniyatlari bilan tanishishlari kerak. Shu sababli, yaxshi eshitmaydigan bolalar bilan korreksion ishlarni barvaqt boshlash tavsiya etiladi. Bunda eshitadigan va eshitmaydigan bolalar rivojlanishi uchun dastlabki 2 - 3 yosh ham katta ahamiyat kasb etadi. Aynan shu

davrda atrof olamni idrok etishni rag'batlantiruvchi muhim muloqot shakllari nutqni tushunish, uning ritmik, intonatsion va ovoz jihatlarini shakllanishini ota-onalar bilishi zarur. 3 yoshdan keyin esa rivojlanishning bu jihatlarini shakllanishi ancha qiyin va uzoq vaqt kechadi. Bu borada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan harakatlanishni rivojlantirish mashqlari, buyumlar va o'yinchoqlardan foydalanish, idrok qilishni rivojlantirish, atrofidagi buyumlar va hodisalar bilan tanishish, rasm chizish, yasash va ko'rish mashqlari bo'lishi shart. Shuningdek, oilada ota va ona tomonidan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolani musiqa asosida tarbiyalash ishlarini 1 yoshga to'lguncha boshlash kerak. Bolani umumiy rivojlanishi uning idrok qilishini rivojlantirishga bog'liq bo'lib nutqning rivojlanishiga zamin hozirlaydi. Boshqa tomondan esa, bunday mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonida ko'plab nutqni rivojlantirish materiallari qo'llaniladi va bola ularni asta-sekin o'zlashtirib boradi.

Bola nutqini va eshitishni rivojlantirish ishlarini olib borishda nutqni – oilada, ta'lim tashkilotida va mahallada eshitish muhitini yaratish kerak. Bunda bola bilan eshitish asbobi yordamida doimo nutqiy muloqot qilinadi. Ilk yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirish ishlari: kattalarning yuzlarini kuzatish, ularning moddiy va nutqiy harakatlariga taqlid qilishga o'rgatish, gapirishga ehtiyoj sezishni shakllantirish, so'zlar ma'nolarini tushunishni rivojlantirishga yo'naltiriladi. Bu mashqlar uzoq davom etadigan, tizimli ishlar bo'lib, ular kun davomida bola bilan muloqotda, shuningdek, mashg'ulotlar vaqtida o'tkaziladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bola nutqini rivojlantirish ishlari uning ilk yoshidanoq boshlansa, 2-3 yoshida bu ishlar sur'ati ancha faollashadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolani harakatlanishi yoki o'yin jarayonida ota-onalar uning nutqiy muloqotini to'g'ri tashkil qilishi, kattalar nutqini tushunish va bolaning o'zini shaxsiy nutqini shakllantirish lozim. Bu davr, me'yorida eshitadigan va eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining rivojlanishi uchun ham o'ta muhim davrdir. Shu davrdan boshlab bola turli buyumlar va hodisalarni farqlab, ularning nomlarini, ular bilan bog'liq harakatlarni bilib boradi. Doimo tuzilishiga ko'ra sodda gaplardan foydalanilsa, bola ulardan eng ko'p takrorlanadiganini tushunadi. Bunda bolaga buyruq shakldagi so'zlarni ahamiyatini tushunishga o'rgatish muhim, chunki bu so'zlarni tushunish ulardan foydalanishda juda qo'l keladi. Mashg'ulotlar mobaynidagi narsalar na o'yinchoqlar bilan o'ynash, rasmlarni tomosha qilish, o'yinchoqlar yordamida kichik hikoyalarni aytib, ko'rsatib berish kabi turli jarayonda so'zlar va jumlar miqdori ko'paytirib boriladi.

Yuqorida aytib o'tilgandek, ota-onalarning asosiy vazifalaridan biri eshitishdan nuqsoni bo'lgan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda saqlanib qolgan eshituvdan bolalarning aqli rivojlanishi asosan ularning nutqini shakllantirishda u yoki bu darajada saqlanib qolgan eshituv faoliyatidan keng foydalanish bilan farq qiladi. Shu sababli bolaning eshituvi orqali qabul qilishni har tamonlama rivojlantirish, individual eshitish

apparatlaridan foydalanish alohida mazmunga ega bo'ladi. Psixik rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni aqliy tarbiyalashda uning o'yin, mehnat, o'qish faoliyatlarini aniq tashkil qilish, bolada amaliy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish ehtiyojini vujudga keltiradi. Maktabgacha ta'lim yoshida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar kitob o'qishlarida noma'lum so'zlarning ma'nosini, murakkab gaplarning mazmunini anglashda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ota-onalarning yordami talab etiladi. Bolaning oilada bo'lishi ayniqsa ta'til paytida uning bog'chada yoki maktabda olgan bilim va ko'nikmalarini o'quv – tarbiyaviy tashkilotlaridagi talablar darajasida mustahkamlash lozim.

Tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilgan oilalar tug'ma eshitishda nuqsoni bo'lgan yoki ko'zi ojiz kabi og'ir nuqsonli bolalar ommaviy bog'chalarda, keyin maktablarda o'qib o'z ma'lumotlarini oshirgach, oliy o'quv yurtlarida o'qishlarini davom ettirishlari mumkin. Maktabgacha ta'lim yoshida eshitishda nuqsoni bo'lgan va zaif eshituvchi bolalar eshituvining buzilishi ularning qo'rquv harakat sferasi orqali, qisman ta'm va hid bilish xususiyatlari orqali estetik tashkil etish va his qilish holatlarini chegaralaydi. Nutq rivojlanishini susayishi eshituvda nuqsoni bo'lgan bolalarning umumiy rivojlanishidagi kamchiliklardan bo'lib, ularning qabul qilish xususiyatlarini susaytiradi. Bunday bolalarda harakatini rivojlantirish uchun ularning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yoki oilalarida tashkil qilinadigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlar asosida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Maktabgacha ta'lim yoshida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni shovqinsiz harakat qilishga o'rgatish zarur. Ma'lumki, eshitishda nuqsoni bo'lgan bola ilk yoshida, ya'ni 2—3 yoshigacha oilada tarbiyalanadi va bu davrda ota-onalar uning rivojlanishi uchun ko'p ishlarni amalga oshirishlari mumkin. Bunda ota-onalarning ilk yoshdagi bolalar bilan ishlashni tashkil etishlari uchun quyidagilarni tavsiya etmoqchimiz.

Maktabgacha ta'lim yoshida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qishga o'rgatish ishlari maktabgacha bo'lgan davrda jadal davom ettiriladi.

Nutqni shakllantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni turli shakllarda, avvalo, muloqotning asosi bo'lgan og'zaki shakllarni rivojlantirish kerak.

Kar va eshitishda nuqsoni bo'lgan go'daklarning talaffuz qilish ko'nikmalari eshitish asbobidan foydalangan holda kattalarga taqlid qilish orqali shakllantiriladi.

Bolaning ovozga javobi yangi tovushlar va ularning birikmalarini yuzaga keltiradigan mashqlarda faollashadi. Bu mashqlar muloqat jarayonida, ya'ni kattalar go'dak bilan turli tovushlar va ularning birikmalari bilan gaplashganda o'tkaziladi. Kattalarga taqlid qilishni o'rganib borgan sayin bola ular bilan bog'liq harakatlarni bajarib, tovushlar, bo'g'inlarni talaffuz qila boshlaydi. Shu vaqtdan boshlab fonetik ritmika mashg'ulotlari boshlanadi. Fonetik ritmika maktabgacha yoshdagi va maktabga chiqish arafasidagi bolalar talaffuzini rivojlantirishning asosiy usullaridan biridir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning anglash qobiliyati hamda nutq va

talaffuzni idrok qilish mexanizmlari rivojlanishida eshitib idrok qilishni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'yin faoliyati syujet-rolli o'yinlari shakllanishiga, unda boshqa bolalar bilan bir qatordagi ishtiroki, turli qismlar va kiyimlar bo'laklarini tayyorlashga yo'naltiriladi. Boshqa faoliyat turlari kabi o'yinning ham nutq rivojlanishida o'ziga xos tomoni bo'lib, u o'ynash vaqtida ishlatiladigan narsalarni nomlash, rollarni atash va syujetni belgilash, o'yin chog'ida boshqa bolalar bilan muloqotga kirishishda ko'rinadi. Odatda maktabgacha yoshigacha bo'lgan bolalarning ixtirochilik faoliyatini rivojlantirish— bola rivojlanishining oldingi bosqichlarida boshlangan rasm, naqsh chizish, applikatsiyaga o'rgatishni davom ettirish bilan bog'liqdir. Rasm chizishga o'rgatish unda o'z tasavvurini aks etgirishga, narsa-buyumni, avvalo, kattalar yordamida, so'ngra mustaqil kuzatishga, ularning o'zi qilishga o'rgatish fonetik ritmikadan tizimli foydalangan holda, rivojlanib kelayotgan eshitish ko'rish idrokiga asoslanadi. Kun davomida fonetik ritmika bizningcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-10 daqiqalik mashg'ulotlar o'tkazish tavsiya qilinib, ularda tovushlarni nomlash, ularni bo'g'inlab va asosiysi so'zlar, gaplarni talaffuz qilish ishlari olib boriladi. Bunday mashg'ulotlar jarayonida nutq o'rtasida nafas olish, ulab ketish, nutq sur'ati va ohangini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar qo'llaniladi. Kitobchada rasmlarni bolalar boshida kattalar ishtirokida, keyinroq o'zlari mustaqil chizishadi. Bunday mashg'ulotlar pirovardida bolada o'qishga qiziqish uyg'otadi. Suratlar tagidagi so'zlar, turli mashg'ulotlar materiallari, qo'lbola kitoblarni muntazam o'qish odatiy va noodatiy matnlarni o'qish, ularning mazmunini tushunish ko'nikmalarining shakllanishiga olib keladi. Tasavvur, og'zaki xotira rivojlanishining muhim vositalaridan biri gapirib berish bo'lib, bunda kattalar bolaga qisqa ertak, hikoyalarni aytib beradilar. Ko'rsatma tayanch sifatida mazmunni yaxshi tushunish uchun o'yinchoqlar, harakatdagi kishilar qomatlari, manzaralardan foydalaniladi. Kattalar ertakni his-tuyg'ularga berilib aytib berishni bolaga ham o'rgatishlari kerak. Uning diqqatini tortadigan, tushunadigan tarzda bolaga bitta hikoyani qayta-qayta gapirib berish natijasida o'zi avval hikoyaning ba'zi qismlarni, so'ngra yaxlitligicha gapirib berishni boshlaydi. Maktabgacha yoshigacha bo'lgan va undan katta yoshdagi bolalarda ijodiy munosabat ham uyg'onib, hikoya davomini o'ylab topishlari, keyinroq mustaqil hikoya to'qiy boshlashlari mumkin. So'z tarkibini mustahkamlash, tovush-harf tarkibini aniqlashtirish uchun bosma harfli yozuvlar, avvalo, jadvalchalarda ko'rsatilib, yodlatiladi, so'ngra esa ular yoddan yozdiriladi. Bolada yozishga qiziqish uyg'onishi uchun turli metodik usullar: rasmlar tagiga nomini yozish, topshiriq, buyruq xatlari, eshitish-ko'rish va eshitib yoziladigan diktantlardan foydalaniladi. Bola nutqining rivojlanishi, talaffuz qilishni o'zlashtirishi, nutqiy eshitish, atrof-olam tovushlari to'g'risidagi tasavvurining kengayishi bilan chambarchas bog'liq.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha bo'lgan davrda bola rivojlanishining erta bosqichlarida boshlangan eshitib idrok qilish bosqichma-bosqich rivojlantirilib davom ettiriladi. Bolalar quloqqa tanish nutqiy materialni farqlash va tanishga, ya'ni uni eshitishi bilanoq, idrok qilishga o'rgatiladi. Eshitib idrok qilishni rivojlantirish ishlari ketma-ketligiga mos ravishda bolalar asta-sekin eshitilishi notanish so'zlarni ham, keyinroq talaffuz qila boshlaydi. Maxsus mashg'ulotlarda, uyda, turli faoliyatlar jarayonida shakllangan so'zlar zaxirasi bu materialni to'liq o'zlashtirishga asos bo'lib, turli so'zlar va gaplarning ma'nolari hamda talaffuz jihatlarini o'zlashtirishni shakllantiradi. Eshitib idrok qilish bo'yicha ishlar talaffuz qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Quloqqa eshitiladigan barcha materiallarni bola og'zaki talaffuz qiladi hamda akustik qiyofalarni aniqlashtirish jarayonida so'z va gaplarning tovush-bo'g'in va ritmik-intonatsion jihatlarini farqlanib, aniqlashtiriladi. Shuningdek, bu jarayonda bola eshitish asbobi yordamida va asbobsiz qabul qiladigan masofa ortib boradi. Bunda karlar va maktab yoshgacha bo'lgan bolalarga normal balandlikdagi tovushlarni, eshitishda nuqsoni bo'lganlarga esa shivirlab aytilgan tovushlarni ham eshita bilish o'rgatiladi. Kar va zaif eshituvchi bolalarda eshitib idrok qilishni rivojlantirish ishlari natijalari, mashqlar muddatiga qarab har xil bo'ladi. Oilada eshitmaydigan bolani tarbiyalash va ta'lim berish, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga nisbatan ancha keng imkoniyatlar yaratadi. Oilada nutqni shakllantirish, eshitib idrok qilishni rivojlantirish ishlari ota-onalarning pedagogik faoliyatidagi barcha bosqichlarni o'z ichiga oladi va bolaning kundalik faoliyatidagi barcha jihatlarini qamrab oladi. Agar ota-onalar oilada bolani tarbiyalash bo'yicha surdopedagoglardan maslahat olib turishsa, surdokabinetlar, qisqa muddatli guruhlar, eshitish va nutqni rehabilitatsiya qilish markazlarida bola rivojlanishini nazorat qildirib, doimiy ko'mak olib turishsa, bu ishlar samaradorligi yanada ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Отбор детей в специальные дошкольные учреждения. – М., 1972. Составители: Власова Т.А., Лебединская К.С., Мачихина В.Ф.
2. Психолого-педагогическая диагностика. Под редакцией И.Ю.Левченко и С.Д.Забрамной. М., Асадема, 2005г.
3. Венгер А.А., Вигодская ГЛ., Леонгард Э.И. Отбор детей в специальные Дошкольные учреждения. М., Просвещение, 1972г.